



**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MANTIQIY TAFAKKURINI
RIVOJLANTIRISHDA MATEMATIKANING O‘RNI**

Saparbaeva Zarina

Nukus davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Matematika juda ham qizqarli fan ekanligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy va aqliy tafakkurini rivojlanishi, noodatiy fikrlashga, aqlini charxlashga, tafakkurini o‘stirishga olib kelishi haqida ma‘lumotlar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** matematika, mantiqiy tafakkur, boshlang‘ich sinf, iqtidorli o‘quvchilar, ijodiy salohiyat, innovatsion ta‘lim.*

Respublikamiz istiqloлга erishgach, barcha sohalarda bo‘lgani kabi boshlang‘ich ta‘lim tizimini ham tubdan isloh qilishga ehtiyoj tug‘ila boshladi. Ayniqsa, o‘qitish tizimini qat‘iyan ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish hamda ta‘lim mazmunini takomillashtirish har bir pedagog oldiga qo‘yilgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risidagi qonuni” hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta‘lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirish maqsadida ta‘lim mazmunini yangilash, yosh avlodning aqliy intellektual rivojlanishini hamda ta‘limning yangi modelini ilmiy-pedagogik jihatdan ta‘minlagan holda muntazam takomillashtirib borish yetakchi vazifa qilib ko‘rsatilgan. Aqliy salohiyati rivojlangan, har jihatdan yetuk, barkamol shaxsni shakllantirishda qonunda ta‘kidlanganidek, bolalardagi bilim va qobiliyatni aniqlash, yuzaga chiqarish hamda rag‘batlantirishga doir dasturlar tayyorlash juda ham muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O‘tgan davr ichida matematika ilm-fani va ta‘limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi:

“Muhammad al Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek singari ulug‘ ajdodlarimiz tamal toshini qo‘ygan matematika fani ilm-fan va texnikaning zamonaviy tarmoqlari jadal rivojlanishi munosabati bilan hozirgi kunda yanada katta ahamiyat kasb etmoqda”.

Yurtimizdagi aksariyat umumta‘lim maktablari boshlang‘ich sinflarida matematika fanini chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan sinflar tashkil etilgan bo‘lib,



asosiy muammolardan biri iqtidorli o'quvchilarning ijodiy salohiyatnamoyon etadigan va rivojlantiradigan qo'llanmalar yetarli emasligi. Ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy qobiliyatlari hamda matematik tafakkurlarini shakllantirish va rivojlantirish har bir o'quvchining, avvalo, ijodkorlik qobiliyatiga, shuningdek, o'qituvchining mahoratiga bog'liq jarayondir. Bunda matematika darslarida o'quvchilarga tavsiya etiladigan yangiliklar, matematikaga oid mustaqil topshiriqlar, qiziqarli mantiqiy mashqlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunday topshiriqlar o'quvchilarda ijodiy mustaqillikning shakllanishiga sabab bo'ladi. Ijodiy bilish o'rganilayotgan jarayonning yangi qirralarini ochishni, bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishni, o'quv materialini o'rganishning yanada mukammal metodlaridan foydalanishni shuningdek, bilish faoliyatining yangi metodlarini egallashni taqozo etadi.

Matematika fanidan beriladigan mantiqiy, qiziqarli masalalar asosan, matematika chuqur o'rganiladigan umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari uchun mo'ljallangan bo'ladi, bundan o'qituvchilar dars davomida, mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda va o'quvchilarni bilimlar bellashuvi, fan olimpiadalariga tayyorlashda shuningdek, ota-onalar farzandlari bilan mustaqil shug'ullanishlari jarayonida foydalanishlari mumkin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi oldiga qo'yilgan talab qanchalik sodda va mushohada yuritishga undamaydigan bo'lsa, o'quvchi shu topshiriqni bajarish bilan chegaralanib qoladi. Aksincha, o'quvchidan izlanishni talab qiladigan, qiyinroq va chuqur mushohadaga chorlaydigan masalalar o'quvchining iqtidorini namoyon etadi hamda rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinflarda Matematika fanidan beriladigan masalalar asosan, quyidagi mavzulardan iborat bo'ladi: sonlarga oid topshiriqlar, sonlar o'rtasidagi ba'zi qonuniyatlarga oid topshiriqlar, qoldikli bo'lishga oid topshiriqlar, hisoblashga oid masalalar, harakatga oid masalalar, mumkin yoki mumkin emasligini aniqlashga oid masalalar, yoshga oid masalalar, massa va uning o'lchov birligiga oid masalalar, vaqtga oid masalalar, uzunlik va uning o'lchov birligiga oid masalalar, geometrik mazmundagi masalalar, qism va ulushlarga oid masalalar, miqdorlarga oid masalalar, narx va qiymatlarni topishga oid masalalar, qiziqarli va mantiqiy mazmundagi masalalar, tenglama yordamida yechiladigan masalalar va boshqalar o'rin olgan. Bu turdagi masalalar o'quvchilarning tafakkur, diqqat, xotira, ijodiy tasavvur etish,



kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash kabi muhim qobiliyatlarinirivojlantirishga yordam beradi.

Matematika boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanishi, kelajakda yetuk inson bo'lib yetishishida o'rni beqiyos hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda matematika o'quvchilarning ongini rivojlantirish bilan bir qatorda, mantiqiy tufakkur qilish, intellektual fikrlash uchun ham zamin yaratiladi. O'quvchilarda mantiqni shakllantiradigan eng asosiy vositalar bu shaxmat va matematika hisoblanadi.

Matematikada turli xildagi masalalarni ishlash, har qanday murakkab, muammoli vaziyatlarda o'quvchilarning to'g'ri va samarali yechimni topish ketishiga yordam beradi. Matematik bilimlar oddiydan murakkablikka qarab ketma-ketlikni shakllantirilsa, o'quvchilar miyasida boshliq bo'lmaydi, har bir mavzu to'liq o'zlashtiriladi.

Olimlarning aytishicha, matematikani yaxshi o'zlashtirilga o'quvchilarning mantiqiy va tahliliy fikrlash darajalari yuqori bo'ladi. Kuchli xotira va zehga ega bo'lgan o'quvchilarni kuzatish natijasida shunga amin bo'ldikki, ularning aksariyati matematik bilim va ko'nikmalarni puxta egallaganliklari uchundir. Matematika-kichik yoshdan boshlab to keksalikkacha o'rganiladigan cheksiz koinot kabidir, shuning uchun uning birinchi sinfdanoq asosiy dars sifatida o'qitilishi bejiz emas. Axir umumiy matematik bilimlarsiz hozirgi zamonaviy texnik va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir paytda eng nochor inson bo'lib qoloshimiz tayin. Buni serqatnov yo'lda ko'zi ochiz inson mashinaning rulini burib uni boshqar deyishimiz bilan taqqoslashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PQ-4387 09.07.2019, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020 –yil 12 iyun kuni O'zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika institutiga tashrif buyurganda so'zlagan nutqidan.
3. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Bo'shlang'ich ta'lim(1-4 sinflar). Toshkent-2017 . 94-bet.



4. Davlatova, M. H. (2021). Semantic implementation of resultive structures. *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6, 291-294.
5. Shirinova, N. D., & Davlatova, M. K. MORPHOLOGICAL WAY OF DIFFERENTIATION OF SUBSTANCE AND ATTRIBUTIVE MEANINGS IN THE LANGUAGE SYSTEM. *ILMIY XABARNOMA. NAUCHNYY VESTNIK* Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабуря,(1), 86-89.
6. Davlatova, M. (2023). Semantic properties of effective constructions in English and Uzbek languages. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 420, p. 10027). EDP Sciences.
7. Hasanovna, D. M. (2023). ON THE TYPES OF RESULTS STRUCTURES EXPRESSED BY A SECONDARY PREDICAT. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(03), 52-58.
8. Hasanovna, D. M. (2022). ASPECTUAL AND LEXICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF VERB NOVATEUR PUBLICATIONS *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal* ISSN No: 2581-4230. ISSUE, 2, 25.
9. Широнова, Н. Д., & Давлатова, М. Х. МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ СПОСОБ РАЗГРАНИЧЕНИЯ ЗНАЧЕНИЙ ПРЕДМЕТНОСТИ И КАЧЕСТВЕННОСТИ В СИСТЕМЕ ЯЗЫКА. *Muassis: Buxoro davlat universiteti TAHRIRIYAT: Muharrirlar: MQ Abuzalova MA Bokareva NN Voxidova*, 40.
10. Давлатова, М. (2023). Typology of expressive emotional relations in linguistics. *Современные тенденции при обучении иностранному языку в XXI веке*, 1(1), 172-178.
11. Hasanovna, D. M. (2021). Semantic Implementation of resultive structures. *novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*.
12. Hasanovna, D. M. (2023). Occurrence of English Verb Predicates in the Functional-Semantic Field. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 518-524.
13. Khasanovna, D. M. (2023). THEORETICAL FOUNDATIONS OF PREDICATIVE CONSTRUCTIONS (In the example of the English language). *Academia Repository*, 4(10), 225-232.
14. Давлатова, М. Х. (2022). NUTQ TUZILMALARI MAZMUNIDAGI SEMANTIKA VA PRAGMATIKANING MUNOSABATI. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 5(5).
15. Davlatova, M. X. (2015). The role of Songs in learning English. *Journal. MolodoyUchyonniy*, 10, 90.
16. Давлатова, М. Х. (2013). Хорошее поведение-важный способ формирования личности. *Вестник Таджикского национального университета*, (3-6), 237-241.



17. Давлатова, М. (2020). FE'LLARNING ASPEKTIK VA LEKSIK-SEMANTIKA TASNIFI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(1).
18. Hasanovna, D. M. (2021). Different aspects of resultative structures according to their linguistic essence. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2 (05), 475–479. VOLUME03 ISSUE06 PAGES, 39, 47.

